



DAVLAT BYUDJETI VA SOLIQLAR ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

Isroilov Suhrob

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0004-3467-2662

bfa.rpd@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat byudjeti va soliqlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda fiskal ko'rsatkichlar, byudjet daromadlari va xarajatlari dinamikasi hamda ularning YalMga nisbati o'rganildi. Soliq tizimidagi strukturaviy o'zgarishlar, soliqqa tortish bazasining kengayishi va raqamlashtirish jarayonlarining kuchayishi iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida ko'rsatildi. Byudjet xarajatlari samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar infratuzilma loyihalarining eng yuqori natija berishini, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida esa samaradorlikni oshirish zarurligini ochib berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat fiskal siyosati iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, kelgusida taqchillikni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va ijtimoiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlarida islohotlarni chuqurlashtirish zarurligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, soliqlar, fiskal siyosat, iqtisodiy barqarorlik, byudjet taqchilligi, soliqqa tortish bazasi, davlat qarzi, infratuzilma, samaradorlik, fiskal islohotlar.

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТ И НАЛОГИ

Исроилов Сухроб

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы обеспечения экономической стабильности через государственный бюджет и налоги. В исследовании изучались фискальные показатели, динамика доходов и расходов бюджета, а также их соотношение к ВВП. Структурные изменения в налоговой системе, расширение налогооблагаемой базы и усиление процессов цифровизации были указаны как важные факторы, влияющие на экономическую стабильность. Проведенный анализ эффективности бюджетных расходов показал, что наибольший эффект дают инфраструктурные проекты, а в сфере здравоохранения и образования необходимо повысить эффективность. Согласно результатам исследования, государственная фискальная политика является одним из основных механизмов укрепления экономической стабильности, и в дальнейшем определена необходимость углубления реформ в направлениях сокращения дефицита, оптимизации расходов и повышения социальной эффективности.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоги, фискальная политика, экономическая стабильность, дефицит бюджета, налогооблагаемая база, государственный долг, инфраструктура, эффективность, фискальные реформы.

WAYS TO ENSURE ECONOMIC STABILITY THROUGH THE STATE BUDGET AND TAXES

Isroilov Suhrob*The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article analyzes the issues of ensuring economic stability through the state budget and taxes. The study examined fiscal indicators, the dynamics of budget revenues and expenditures, and their ratio to GDP. Structural changes in the tax system, the expansion of the tax base, and the intensification of digitalization processes were identified as important factors influencing economic stability. Analysis of the effectiveness of budget expenditures revealed the highest effectiveness of infrastructure projects and the need to increase efficiency in the healthcare and education sectors. According to the research results, the state fiscal policy is one of the main mechanisms for strengthening economic stability, and in the future, it is necessary to deepen reforms in the areas of reducing the deficit, optimizing expenditures, and increasing social effectiveness.*

Keywords: *state budget, taxes, fiscal policy, economic stability, budget deficit, tax base, public debt, infrastructure, efficiency, fiscal reforms.*

Kirish.

Globalizatsiya jarayonlari chuqurlashayotgan hozirgi davrda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi davlatning moliyaviy siyosati, xususan, byudjet va soliqlar tizimi orqali ta'minlanmoqda. Bozor mexanizmlari o'z-o'zidan iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab bera olmaydi. Shu bois davlatning fiskal siyosati ya'ni soliqlar yig'ilishi va byudjet mablag'larining samarali taqsimlanishi iqtisodiyotni muvozanatli boshqarishda muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Davlat byudjeti nafaqat davlat xarajatlarini moliyalashtiradi, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy muhitda davlat byudjeti va soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy vositalar hisoblanadi. Global iqtisodiy inqirozlar, COVID-19 pandemiyasining oqibatlari, inflyatsion bosim va geosiyosiy keskinlashuvlar sharoitida davlat moliyaviy siyosatining ahamiyati yanada oshdi.

Soliq tizimi esa davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan soliq siyosati iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, investitsion muhitni yaxshilaydi, korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytiradi. Shu bilan birga, soliqlar ijtimoiy tenglikni ta'minlashda, ya'ni yuqori daromad oluvchilar bilan past daromadga ega qatlamlar o'rtasidagi farqni muvozanatlashtirishda ham asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillarda global darajada davlat xarajatlari YaIMga nisbatan o'rtacha 8-12 foizga oshgan, bu esa byudjet taqchilligi va davlat qarzi masalalarini kuchaytirib yubordi (World Bank, 2024). Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu muammo dolzarb hisoblanadi, chunki ular chegaralangan moliyaviy resurslarga ega bo'lib, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan.

O'zbekiston Respublikasi uchun ham ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, soliq tizimini liberallashtirish va byudjet daromadlari tuzilmasini diversifikatsiyalash jarayonlari davom etmoqda. Biroq, demografik o'zgarishlar, ishsizlik darajasining oshishi, ijtimoiy yuk va infratuzilma investitsiyalariga bo'lgan ehtiyoj byudjet barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha qiyinchiliklar yaratishi mumkin.

Nazariy jihatdan, byudjet va soliq siyosati iqtisodiy barqarorlikni ikki asosiy mexanizm avtomatik stabilizatorlar va diskret fiskal choralar orqali ta'minlaydi. Avtomatik stabilizatorlar iqtisodiy tsiklning turli bosqichlarida byudjet holatini avtomatik ravishda moslashtirib turadi,

diskret choralar esa maqsadli siyosiy qarorlar asosida amalga oshiriladi (Blanchard et al., 2022).

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli fiskal siyosat quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: byudjet qoidalarining aniq belgilanishi, o'rta muddatli byudjet rejalashtirish, soliq tizimining samaradorligi va shaffoflik (Cottarelli, 2021). Biroq, bu tamoyillarni rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tadqiqotchilar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha davlat byudjeti va soliq siyosatini takomillashtirishga harakat qiladilar ya'ni soliq bazasini kengaytirish, byudjet xarajatlarining sifatini yaxshilash, davlat qarzini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va makroiqtisodiy prognozlash tizimini rivojlantirish. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va fintech yechimlaridan foydalanish soliq yig'ish samaradorligini oshirish va byudjet jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi (Gaspar et al., 2019).

O'zbekiston misolida ham davlat byudjeti va soliq siyosatining iqtisodiy barqarorlikdagi ahamiyati ortib bormoqda. Mamlakatda fiskal siyosatni modernizatsiya qilish, soliqlarni soddalashtirish, byudjet mablag'larini shaffof taqsimlash, davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi davlat byudjeti va soliq siyosati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari va O'zbekiston sharoitiga mos mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan izohlanadi. Tadqiqotimiz natijalari davlat organlariga fiskal siyosatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish, shuningdek, ilmiy jamiyat uchun nazariy asoslarni mustahkamlash maqsadini ko'zlaydi.

Adabiyotlar sharhi

Fiskal siyosat va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ko'plab xalqaro tadqiqotchilarda e'tiborni tortgan. Krugman (2023) o'zining "Fiscal Policy in the Age of Uncertainty" asarida zamonaviy fiskal siyosatning asosiy qiyinchiliklarini tahlil qilgan va COVID-19 pandemiyasidan keyin davlat aralashuvining o'sgan rolini ta'kidlagan. Muallif shuni ko'rsatadiki, an'anaviy fiskal qoidalar zamonaviy iqtisodiy chaqiriqlar oldida samarasiz bo'lib qolgan va yangi yondashuvlar talab etiladi.

Blanchard, Leandro va Zettelmeyer (2022) "Redesigning EU Fiscal Rules" tadqiqotida Yevropa Ittifoqining fiskal qoidalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini asoslagan. Ularning fikricha, 3% byudjet taqchilligi va 60% davlat qarzi chegaralari iqtisodiy haqiqatga mos kelmaslik sababli ishlab chiqarilgan. Tadqiqotchilar moslashuvchan fiskal qoidalar tizimini taklif etgan, bu tizim mamlakatlarning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlarini hisobga olishi lozimligi keltirilgan.

Gaspar, Medas va Perrelli (2019) "Global Debt Database" loyihasi doirasida davlat qarzi dinamikasi va fiskal barqarorlikni tahlil qilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat qarzining YaIMga nisbatan optimal darajasi 40-50% atrofida bo'lishi kerak, rivojlangan mamlakatlar uchun esa bu ko'rsatkich 70-80% gacha bo'lishi mumkin.

Rossiya olimlari orasida Kudrin A.L. (2021) "Бюджетная политика в условиях структурных изменений" asarida Rossiya byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari va strukturaviy o'zgarishlar ta'sirini o'rgangan. Muallif energiya resurslariga bog'liqlikni kamaytirish va byudjet daromadlarini diversifikatsiyalash zaruriyatini ta'kidlagan. Shuningdek, u soliq yuki va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanat masalasiga alohida e'tibor bergan.

Siluanov A.G. va Nazarov V.S. (2022) "Налоговая политика в условиях геополитической нестабильности" tadqiqotida geosiyosiy beqarorlik sharoitida soliq siyosatining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan. Ular shuni ko'rsatganki, tashqi iqtisodiy bosim

ostida mamlakatlar ichki soliq bazasini mustahkamlash va soliq yig'ish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishi kerak.

Gurvich Ye.T. (2020) "Макроэкономическая политика в условиях пандемии" ishida pandemiya sharoitida makroiqtisodiy siyosatning o'zgarishi va fiskal stimulning samaradorligini baholagan. Tadqiqotchi shuni ta'kidladiki, krizis sharoitida fiskal multiplier odatdagidan yuqori bo'ladi va davlat xarajatlari iqtisodiy faollikni tiklashda muhim rol o'ynaydi deb hisoblagan.

O'zbek iqtisodchilari orasida Vaxabov A.V. (2022) "O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatining zamonaviy masalalari" monografiyasida mamlakatdagi fiskal siyosatning holatini har tomonlama tahlil qilgan. Muallif soliq tizimini soddalashtirish va byudjet samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida soliq ma'muriyatini modernizatsiyalash masalasiga alohida e'tibor bergan.

Yusupov Yu.B. (2023) "Davlat moliyasi" darsligida O'zbekiston davlat moliyasi tizimining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilgan. U byudjet jarayonining barcha bosqichlarini rejalashtirish, bajarish va nazoratni zamonaviy talablar nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan va takomillashtirish yo'llarini taklif qilgan.

Raimjanova D.A. (2021) soliq tizimi va iqtisodiy o'sishga bag'ishlangan tadqiqotida soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida tahlil qilgan. Tadqiqotchi shuni aniqlagan, soliq stavkalarining optimal darajasi va soliq yig'ish samaradorligi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Shuningdek, u soliq imtiyozlari tizimini isloh qilish orqali byudjet daromadlarini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda davlat byudjeti va soliqlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarini o'rganishda nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unlashtiriladi. Asosiy metodologik asos sifatida fiskal siyosat nazariyalari, davlat moliyasi hamda institutsional iqtisodiyot konsepsiyalaridan foydalaniladi. Maqsadga erishish uchun statistik tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, tizimli yondashuv va modellashtirish usullari qo'llaniladi. Shu orqali davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasi, soliqlar tuzilmasi hamda ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri aniqlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida davlat byudjeti va soliqlar tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Byudjet daromadlari tarkibida soliqlar asosiy manba bo'lib, ularning ulushi 70–75 foiz atrofida shakllanmoqda. Eng yirik tushumlar qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va foyda solig'i hisobiga shakllanib, davlat moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xarajatlar esa asosan ijtimoiy sohalar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimiga yo'naltirilmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma loyihalariga qaratilgan mablag'lar iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror ushlab turishga yordam bermoqda.

Soliq siyosatining bosqichma-bosqich isloh qilinishi, stavkalarining pasaytirilishi va tizimning soddalashtirilishi iqtisodiy faoliyatga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, yuridik shaxslar foyda solig'i stavkasining kamaytirilishi tadbirkorlik sub'yektlari uchun investitsion muhitni yaxshilab, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirishga rag'batlantirdi. Yagona ijtimoiy to'lovning qisqartirilishi esa ish beruvchilar uchun xarajatlarni kamaytirib, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga imkon berdi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligida raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishi hisob-kitoblarning shaffofligini ta'minlab, "yashirin iqtisodiyoti" ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari ham fiskal siyosatning samarali olib borilayotganini ko'rsatadi. Byudjet taqchilligining YAIMga nisbatan past darajada saqlanishi davlatning moliyaviy intizomi yuqori ekanini bildiradi. Shu bilan birga, byudjet mablag'larining

katta qismi ishlab chiqarish sohalarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy loyihalarga yo'naltirilishi ichki talabni rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishga ijobiy turtki bermoqda. Bu esa aholining farovonlik darajasini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini bermoqda.

1-jadval

O'zbekiston byudjet ko'rsatkichlari dinamikasi (2019-2024)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarish (%)
Byudjet daromat (YaIMga %)***	23,1	21,8	24,2	25,8	26,4	27,2	17,7
Byudjet xarajat (YaIMga %)***	25,3	26,4	26,8	27,2	28,1	31,2	23,3
Byudjet muvozanati (YaIMga %)***	-2,2	-4,6	-2,6	-1,4	-1,7	-4,0	81,8
Soliq daromat (YaIMga %)***	19,1	17,8	20,4	21,7	22,3	23,6	23,6
Davlat qarzi (YaIMga %)*	29,4	38,5	35,2	34,1	32,8	33,9	15,3
YaIM (mlrd dollar)***	57,9	57,7	69,2	80,4	90,1	114,9	98,4

Manba: *IMF (2024), **World Bank (2024), ***O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

O'zbekiston byudjet tizimi 2019-2024-yillar oralig'ida muhim transformatsiyadan o'tdi. 2024-yilda davlat byudjeti daromadi 274,3 trillion so'mga yetib, YaIMning 18,9% ini tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 18,3% o'sdi. YaIMga nisbatan hisoblanganda, byudjet daromatlari 6 yil ichida 23,1% dan 27,2% gacha, ya'ni 17,7% ga oshgan.

Soliq daromadlarining dinamikasi ayniqsa diqqatga sazovor. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar foyda solig'i, shaxsiy daromad solig'i va aylanma solig'i 90,8 trillion so'm, bilvosita soliqlar QQS, aksiz solig'i, bojxona to'lovlari esa 88,3 trillion so'm tashkil etdi. Bu soliq tizimining muvozanatli rivojlanishidan dalolat beradi. 2019-yilda 19,1% bo'lgan soliq daromadlari ulushi 2024-yilda 23,6% gacha ko'tarildi, bu 23,6% o'sishni ko'rsatmoqda.

Byudjet xarajatlarning sezilarli o'sishi (23,3%) mamlakatning rivojlanish ustuvorliklarini aks ettiradi. 2024-yil uchun davlat byudjeti qonunida daromadlar 270,4 trillion so'm, xarajatlari esa 280,7 trillion so'm deb rejalashtirilgan. Xarajatlarning YaIMga nisbati 25,3% dan 31,2% gacha oshgani ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma sohalariga investitsiyalarning kuchayganligidan dalolat beradi.

Byudjet taqchilligi bo'yicha 2024-yilda siyosatda o'zgarish yuz berdi. Hukumat byudjet taqchiligini 2024-yilda YaIMning 4% igacha, 2025-yilda esa 3% gacha kamaytirish maqsadini qo'ydi. 2023-yilda 1,7% gacha kamaygan taqchilik 2024-yilda 4,0% gacha ko'tarildi, bu asosan ijtimoiy va infratuzilma xarajatlarning rejali oshishi bilan bog'liq.

Davlat qarzi dinamikasi nisbatan barqaror bo'ldi. 2020-yilda pandemiya ta'sirida 38,5% gacha ko'tarilgan qarz yuki keyingi yillarda bosqichma-bosqich kamaytirildi. 2024-yilda O'zbekistonning tashqi qarzi 64,1 milliard dollarga yetib, YaIMning 55,7% ini tashkil etdi, bu 2023-yildagi 51,9% dan yuqori. Ichki davlat qarzi esa 33,9 milliard dollar yoki YaIMning 33,9% ini tashkil etdi.

YaIMning absolut qiymatdagi ikki martga oshishi (57,9 mlrd dollardan 114,9 mlrd dollargacha) iqtisodiyotning 6,5% ga o'sgani va nominal daromadlarning oshganligini ko'rsatadi. Bu byudjet imkoniyatlarini kengaytirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Soliq tizimi tuzilmasida 2019-2024-yillar oralig'ida fundamental o'zgarishlar yuz berdi. Jami soliq daromadi deyarli ikki baravar (95,7%) o'sib, 91,5 trillion so'mdan 179,1 trillion so'mga yetdi. Bu o'sish iqtisodiy faollikning kuchayishi, soliq bazasining kengayishi va soliq ma'muriyati samaradorligining oshganligi bilan bog'liq.

2-jadval

Solliq tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari

Solliq turlari	2019-yil		2024-yil		O'zgarish
	Mrld so'm	Ulush (%)	Mrld so'm	Ulush (%)	(%)
To'g'ridan-to'g'ri soliqlar	40,890	44.7	90,800	50.8	122.1
- Yuridik shaxslardan foyda solig'i	17,250	18.9	41,350	23.1	139.7
- Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	12,350	13.5	28,420	15.9	130.1
- Aylanma solig'i	11,290	12.3	21,030	11.8	86.3
Bilvosita soliqlar	50,610	55.3	88,300	49.2	74.4
- QQS	35,680	39.0	62,150	34.7	74.2
- Aksiz solig'i	8,940	9.8	16,890	9.4	88.9
- Bojxona to'lovlari	5,990	6.5	9,260	5.2	54.6
Jami solliq daromad	91,500	100	179,100	100	95.7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Eng muhim strukturaviy o'zgarish to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar nisbatida kuzatildi. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar ulushi 44,7% dan 50,8% gacha oshib, bilvosita soliqlar ulushidan oshib ketdi ya'ni 55,3% dan 49,2% gacha kamaydi. Bu o'zgarish solliq tizimining progressiv yo'nalishda rivojlanishini ko'rsatadi, chunki to'g'ridan-to'g'ri soliqlar iqtisodiy adolatilik nuqtai nazaridan samaraliroq hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i eng yuqori o'sish sur'atini 139,7%ni ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich korxonalar rentabelligining oshganligi, biznes muhitining yaxshilanishi va yangi tadbirkorlik sub'ektlarining paydo bo'lishidan dalolat beradi. 2024-yilda foyda solig'i daromadlari 41,35 trillion so'mga yetib, umumiy solliq daromadlarining 23,1% ini tashkil etdi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ham sezilarli o'sdi. Bu mehnat bozorining kengayishi, ish haqi fondining o'sishi va solliqqa tortish bazasining kengayishini aks ettiradi. Rasmiy mehnat bozorining kengayishi va yashirin iqtisodiyotining kamayishi bu o'sishga hissa qo'shgan asosiy omillar hisoblanadi.

Aylanma solig'i nisbatan past sur'atda o'sdi, bu sohadagi solliq imtiyozlari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan izohlanishi mumkin. Biroq, absolut miqdorda u ikki baravarga oshgan. Bilvosita soliqlar bo'yicha QQS eng katta ulushga ega bo'lsa-da, uning nisbiy ulushi kamaydi. Bu eksport yetkazib beruvchilar uchun QQS imtiyozlari va ichki iste'molni rag'batlantirish siyosati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bojxona to'lovlari eng past o'sish sur'atini ko'rsatdi, bu import bo'yicha preferensial rejimlar, savdo kelishuvlari va bojxona to'lovlari optimallashtirish siyosati bilan bog'liq. Ularning ulushi 6,5% dan 5,2% gacha kamaydi.

Umumiy holda, solliq tizimi samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Bu raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, elektron hisob-fakturalar tizimi, soliqlarni onlayn to'lash, solliq nazoratining yaxshilanishi, solliq to'lovchilar bilan ishlashning yangi usullari va solliq qonunchiligini soddalashtirish natijasida erishildi.

Davlat byudjeti xarajatlarining dinamikasi O'zbekiston rivojlanish strategiyasining asosiy ustuvorliklarini aniq aks ettiradi. 2019-2024-yillar oralig'ida jami xarajalar 2,6 baravarga oshdi. Bu nominal o'sish 156,8% ni tashkil etdi.

Byudjet xarajatlari tuzilmasi va samaradorligi

Xarajat yo'nalishlari	2019-yil		2024-yil		O'sish sur'ati (%)	Samaradorlik indeksi*
	Mlrd so'm	Ulush (%)	Mlrd so'm	Ulush (%)		
Ta'lim	31,500	28,8	86,800	30,9	175,6	0,87
Sog'liqni saqlash	18,900	17,3	58,200	20,7	207,9	0,81
Ijtimoiy himoya	22,400	20,5	54,800	19,5	144,6	0,76
Iqtisodiy faollik	15,600	14,3	40,300	14,3	158,3	0,92
Mudofaa va xavfsizlik	7,500	6,9	16,100	5,7	114,7	0,89
Infratuzilma	5,200	4,8	28,500	10,1	448,1	0,95
Davlat boshqaruvi	8,700	8,0	19,200	6,8	120,7	0,68
Jami	109,300	100	280,700	100	156,8	0,84

*Samaradorlik indeksi - xarajatlarning maqsadli ko'rsatkichlarga erishishdagi nisbati (0-1 oralig'ida)

****Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Infratuzilma xarajatlari eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatdi va ularning ulushi 4,8% dan 10,1% gacha ko'tarildi. Bu transport, energetika, suv ta'minoti va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan yirik davlat investitsiya dasturlarini aks ettiradi. 28,5 trillion so'mlik xarajat yo'llar qurilishi, temir yo'l modernizatsiyasi, elektr tarmoqlarini yangilash va telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish loyihalariga yo'naltirildi.

Ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar 175,6% oshib, ta'lim xarajatlarning ulushi 28,8% dan 30,9% gacha oshgani inson kapitali rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishini ko'rsatadi. Bu xarajatlar maktablar, oliy ta'lim muassasalari qurilishi, o'qituvchilar ish haqini oshirish, o'quv materiallari va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yo'naltirilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida xarajatlar 207,9% oshgan. Bu eng yuqori o'sish sur'atlaridan biri hisoblanadi va pandemiya davrida sog'liqni saqlash tizimining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ulushning 17,3% dan 20,7% gacha oshishi tibbiy infratuzilmani modernizatsiyalash, yangi kasalxonalar qurilishi, tibbiy xodimlar ish haqini oshirish va dori-darmon ta'minotini yaxshilash dasturlarini aks ettiradi.

Ijtimoiy himoya xarajatlari mutlaq miqdorda 144,6% oshgan bo'lsa-da, nisbiy ulushi biroz kamaydi. Bu nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar, imtiyozlar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Xarajat aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash xarajatlari 158,3% oshdi. Bu xarajatlar qishloq xo'jaligi, sanoat, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiya va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturlariga yo'naltirilgan. Ulushning barqaror saqlanishi iqtisodiy rivojlanishga uzluksiz e'tibor qaratilishini bildiradi.

Samaradorlik indeksleri bo'yicha tahlil quyidagi xulosalarni beradi. Eng yuqori samaradorlik infratuzilma va iqtisodiy faollik sohalarida kuzatildi. Bu xarajatlarning to'g'ridan-

to'g'ri iqtisodiy natijalar - yangi ish joylari, eksport o'sishi, investitsiyalar jalb etilishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Ta'lim va mudofaa-xavfsizlik sohalari o'rtacha-yuqori samaradorlikka ega. Sog'liqni saqlash sohasidagi samaradorlik yaxshilanishni talab qiladi, bu tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va resurslardan samaraliroq foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Umumiy byudjet xarajatlarining o'rtacha samaradorligi 0,84 ni tashkil etib, bu nisbatan yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq, barcha sohalarda samaradorlikni 0,90 dan yuqori darajaga ko'tarish uchun qo'shimcha islohotlar zarur. o'zgarishi va xarajat yo'nalishlarining nisbiy samaradorligini aks ettiradi. Jami byudjet xarajatlari nominal ifodada 2,3 martaga oshgan. Eng katta o'sish infratuzilma xarajatlarida kuzatilgan, bu mamlakatning strategik rivojlanish dasturlariga muvofiq keladi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari umumiy xarajatlardagi ulushini oshirgan. Bu inson kapitali rivojlantirishga qaratilgan siyosatning ijobiy natijasidir. Ijtimoiy himoya xarajatlari ulush jihatidan biroz kamaygan, lekin mutlaq miqdorda ikki martga oshgan.

Samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori natijalarni infratuzilma va iqtisodiy faollik yo'nalishlari ko'rsatgan. Bu xarajatlarning to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sirga ega ekanligini bildiradi. Eng past samaradorlik davlat boshqaruvi va ijtimoiy himoya sohalarida kuzatilgan, bu ushbu sohalarda samaradorlikni oshirish zarurligi haqida guvohlik beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasi hamda soliqlar tarkibidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2019-2024-yillar oralig'idagi fiskal ko'rsatkichlar tahlili byudjet daromadlari izchil o'sib borayotganini, xarajatlarda esa nisbatan tezroq sur'atlarda ortib, taqchillikning ma'lum darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu holat davlatning faol investitsion va ijtimoiy xarajatlarda siyosati yuritayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlat qarzi ham YaIMga nisbatan barqaror me'yorda ushlab turilmoqda, bu esa fiskal barqarorlikka ijobiy ta'sir etmoqda.

Soliq tizimidagi strukturaviy o'zgarishlar ham iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilganini ko'rish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar ulushining oshishi va bilvosita soliqlar ulushining pasayishi fiskal siyosatning adolat va samaradorlikka intilayotganidan darak beradi. Xususan, foyda solig'i hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i ulushi oshgani, aksincha QQS va bojxona to'lovlari ulushi kamaygani iqtisodiyotning ichki imkoniyatlarini safarbar etish, soliq bazasini kengaytirish va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida fiskal yukni nisbatan tengroq taqsimlashga yordam bermoqda. Bu tendensiya iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan ham yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Byudjet xarajatlari samaradorligi ko'rsatkichlari esa ajratilayotgan mablag'larning iqtisodiy rivojlanishdagi real natijalar bilan qanchalik uyg'unligini ochib berdi. Infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan xarajatlarning samaradorligi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, iqtisodiy faollik, ish o'rinlari yaratilishi va hududiy rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir qilmoqda. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida samaradorlik o'rtacha darajada qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishlarda inson kapitalini rivojlantirish uchun qo'shimcha islohotlar zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy sohalarda esa ajratilgan mablag'larning ta'siri nisbatan past bo'lib, bu resurslardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

YaIM hajmining sezilarli o'sishi bilan bir qatorda byudjet daromadlarining ham barqaror ortib borishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash jarayonining natijadorligini ko'rsatmoqda. Soliqlar orqali moliyaviy manbalarni shakllantirish va ularni samarali taqsimlash mexanizmlarining asta-sekinlik bilan takomillashib borayotgani davlat fiskal siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Biroq ayrim yo'nalishlarda, xususan, ijtimoiy xarajatlarning samaradorligini oshirish, byudjet taqchilligini kamaytirish va fiskal risklarni oldindan bashorat qilish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarur. Shunday qilib, davlat byudjeti va soliqlar tizimi O'zbekiston iqtisodiy barqarorligining asosiy tayanchi bo'lib, kelgusi yillarda ham islohotlarning uzluksiz davom ettirilishi zarur bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati va davlatning xarajatlari va daromadlari nisbati yildan-yilga o'sib rivojlanib bormoqda. O'zbekiston davlat byudjeti 2019-2024-yillarda izchil o'sib, mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim tayanchiga aylandi. Byudjet daromadlari va xarajatlari YaIMning o'sish sur'atlariga mutanosib ravishda ortib bordi, biroq xarajatlar tezroq sur'atlarda ko'paygani sababli taqchillik muammosi saqlanib qoldi. Shunga qaramay, davlat qarzining YaIMga nisbatan me'yoriy chegarada ushlab turilishi fiskal barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu holat davlatning faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritayotganidan dalolat beradi.

Soliq tizimida kuzatilgan strukturaviy o'zgarishlar – to'g'ridan-to'g'ri soliqlar ulushining ortishi va bilvosita soliqlar ulushining kamayishi – fiskal siyosatni ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga yaqinlashtirdi. Foyda solig'i va daromad solig'ining oshishi iqtisodiy resurslarni yanada aniqroq qayd etish imkonini berdi, QQS va bojxona to'lovlari ulushining qisqarishi esa ichki iqtisodiy faollikni rag'batlantirdi. Bu yondashuv davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash bilan birga iqtisodiyotda shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Byudjet taqchilligini kamaytirish maqsadida xarajatlarni optimallashtirish bilan bir qatorda, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish zarur. Xususan, kichik biznes va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soya iqtisodiyotini qisqartirish va fiskal intizomni kuchaytirish muhimdir.

Soliq tizimini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish zarur. Elektron hisob-kitoblarni keng joriy etish, soliq to'lovchilarga onlayn xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish va korrupsiya xavfini kamaytirish orqali soliqlardan tushum hajmini oshirish mumkin.

Byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish uchun natija-orientirlangan byudjetlashtirish tizimini joriy etish lozim. Har bir soha bo'yicha ajratilgan mablag'lar iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlarga masalan, yangi ish o'rinlari soni, o'quvchilar qamrovi, tibbiy xizmat sifati bilan bog'liq tarzda baholanishi kerak.

Ijtimoiy xarajatlarning samaradorligini oshirish maqsadida, ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini qat'iy nazorat qilish, monitoring tizimlarini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarur. Shu orqali mablag'lar real ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi va ularning natijasi oshadi.

Adabiyotlar/Literaturalar/Reference:

Blanchard, O., Leandro, A., & Zettelmeyer, J. (2022). *Redesigning EU Fiscal Rules: From Rules to Standards*. Peterson Institute for International Economics Working Paper, 22-1, pp. 1-45.

Cottarelli, C. (2021). *Fiscal Policy and Economic Stability: The Role of Automatic Stabilizers*. International Monetary Fund Working Paper, WP/21/158, pp. 1-38.

Gaspar, V., Medas, P., & Perrelli, R. (2019). *Global Debt Database: Methodology and Sources*. International Monetary Fund Working Paper, WP/19/256, pp. 1-31.

Krugman, P. (2023). *Fiscal Policy in the Age of Uncertainty: Lessons from the Pandemic*. Journal of Economic Perspectives, 37(2), pp. 89-112.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Moliyaviy barqarorlik hisoboti*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 156 bet.

O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston statistik yilligi*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 578 bet.

Раимжанова, Д.А. (2021). Солиқ тизими ва иқтисодий ўсиш: Ўзбекистон тажрибаси. Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар илмий электрон журнали, № 5, 78-92 бетлар.

World Bank. (2023). *Global Economic Prospects: Fiscal Policy Challenges in Developing Countries*. Washington, DC: World Bank Publications, pp. 156-189.

Бахабоов, А.Б. (2022). *O'zbekistonda byudjet-soliq siyosatining zamonaviy masalalari: nazariya va amaliyot*. Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 312 bet.

Гурвич, Е.Т. (2020). Макроэкономическая политика в условиях пандемии: международный опыт. Вопросы экономики, № 7, с. 5-28.

Кудрин, А.Л. (2021). Бюджетная политика в условиях структурных изменений российской экономики. Финансы, № 3, с. 3-15.

Силуанов, А.Г., & Назаров, В.С. (2022). Налоговая политика в условиях геополитической нестабильности: вызовы и решения. Налоги и налогообложение, № 4, с. 12-27.

Юсупов, Ю.Б. (2023). Davlat moliyasi nazariyasi va amaliyoti: darslik. Toshkent: TDIU nashri, 428 bet.